



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> February, 2025

## **PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI ZAMONAVIY PED TEXNALOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Mirbabayeva Feruza Rustamovna,  
Mamatqulova Yulduz Asliddin qizi,  
Mustafoyeva Munisa Yaxshilik qizi  
Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi  
jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchilari

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada pedagog kadrlarni kasbiy kompetentligini baholash va tashhislashning zamonaviy yondashuvlari va xorijiy tajribalar mavzusida ma'lumotlar beradi. Undan tashqari tezisimizda pedagog kadrlarni baholashning zamonaviy yondashuvlari va xorijiy tajribalar va zamonaviy ta'limga muassasalarida pedagog kadrlarni baholashning zamonaviy yondashuvlari bo'yicha qanday usulardan foydalanish kerakligini ko'rsatadi. Pedagog kadrlarni yangi texnologiyalardan samarali foydalanish, interaktiv darsliklardan va onlayn ta'limga imkoniyatlaridan foydalanishi bo'yicha tushunchalar keltirilgan. Kalit

**Kalit so'zlar:** ilm fan, pedagog kadrlar, kasbiy kompetentlik, baholash tashhislash, zamonaviy yondashuvlar, xorijiy tajribalar, ta'limga muassasalar, jarayonlar, kasbiy portfel, rivojlanish, yangi texnologiyalar, interaktiv darsliklar, onlayn ta'limga, xorijiy ta'limga institutlari, amaliy tajriba, pedagogik usullar.

## **IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS ON THE BASIS OF MODERN PED TECHNOLOGIES**

### **Abstract:**

This article provides information on modern approaches to assessing and diagnosing the professional competence of pedagogical personnel and foreign experiences. In addition, our thesis shows what methods should be used in modern approaches to



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> February, 2025

assessing pedagogical personnel and foreign experiences and modern approaches to assessing pedagogical personnel in modern educational institutions. The concepts of effective use of new technologies by pedagogical personnel, use of interactive textbooks and online learning opportunities are presented.

**Keywords:** science, pedagogical personnel, professional competence, assessment and diagnosis, modern approaches, foreign experiences, educational institutions, processes, professional portfolio, development, new technologies, interactive textbooks, online education, foreign educational institutions, practical experience, pedagogical methods.

Jahonda globallashuv jarayonlari sharoitida ilm-fan, texnika va madaniyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ta’lim tizimlariga bo‘lgan talabni kengaytirish, uning mazmuni, shakl va o‘qitish uslublarini, ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish hamda boshqarish faoliyati mexanizmlarini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. 2030 yilgacha mo‘ljallangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti “Barqaror Taraqqiyot Dasturi”ning inklyuziv, adolatli va sifatli ta’limni ta’minlash va hayot davomida ta’lim olishni rag‘batlantirishga qaratilgan maqsadlari – jahon tajribasini o‘rganish asosida ta’lim tizimini rivojlantirish hamda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda zamonaviy ta’lim tendensiyalari asosida kasbiy ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, uning samaradorligini oshirish orqali malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Aynan, bugungi kunda yoshlarda professional ta’lim, o‘quvchi-yoshlarda kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish, professional ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish masalasi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bugungi kunda hamkorlikka asoslangan holda ta’lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish strategiyalari, ta’limtarbiya tizimining



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> February, 2025

konseptual xususiyatlari va modernizasiyalashning asosiy yo‘nalishlari, ta’limtarbiya tizimi rivojlanishining zamonaviy islohotlari, ta’lim-tarbiya jarayonlari tizimining qiyosiy tahlillari va dinamikasiga hamda ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlarni o‘rganish alohida e’tiborga molikdir. Shu jihatdan ilg‘or tajribalarni almashish orqali ta’limning tashkiliypedagogik jarayonidagi va boshqarish faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish, yangicha yondashuv, texnologiya va tamoyillarni ishlab chiqish va rivojlantirish zaruratini izohlaydi. Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar rivojlangan mamlakatlar bilan o’zaro hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

## **Asosiy qism**

Mamlakatimizda yangi professional ta’lim uchun pedagoglarni tayyorlashning tashkiliypedagogik shart-sharoitlari va axborot-metodik imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shuningdek, “Hayot davomida ta’lim olish” tamoyili asosida pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish, ta’limning maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonini tashkil qilish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish uchun ta’lim dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy yangilab borish masalalarga e’tibor qaratildi. Shu nuqtai nazardan professional ta’lim pedagog kadrlarni kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishda rasmiy, norasmiy ta’lim shakllarini qo’llashning didaktik imkoniyatlarini va o‘quv-uslubiy ta’mintonini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. Pedagog kadrlar, ta’lim tizimining asosiy tashkilotchilari va o‘quvchilarning rivojlanishini ta’minlaydigan muhim elementlar hisoblanadi. Bu sababli, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentliklarini baholash va tashhislash, zamonaviy yondashuvlarning keng qo’llanilayotgan usullari va xorijiy tajribalardan foydalanishni talab qiladi. Ushbu ilmiy maqolada, pedagog kadrlarni baholashning zamonaviy yondashuvlari va xorijiy tajribalar asosida rivojlanishini oshirishga qaratilgan yo’llar va ularning o‘quvchilarga o’tkaziladigan ta’sirini baham ko’rishga harakat qilingan. Pedagogik rivojlanishlar, tarbiyachi o’qituvchilarning o’zlarini yanada rivojlantirish, yangi pedagogik texnikalardan foydalanish, dars jarayonlarini interaktiv va atraktiv qilish,



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> February, 2025

o'quvchilarga tatbiqiy mashqlar va kasbiy portfelli orqali o'z faoliyatlarini namoyon qilish kabi qismlarni o'z ichiga oladi. Bu rivojlanishlar, o'qituvchilarning o'ziga xos pedagogik usullarni o'rganish, o'z rivojlanishlarini baholash va tashhislash orqali ma'naviyat, bilim, amaliyat va ijtimoiy sohalarda rivojlanishlarini mustahkamlaydi. Baxolash jarayonida jarayoni baholashning ahamiyati katta e'tiborga sazovor bo'ladi. Pedagog kadrlarning o'z faoliyatlarini video, audio va yozma shaklda taqdim etish orqali baholash usulidir. Bu usul, o'qituvchilarning dars jarayonlarini tahlil qilish, ta'limning sifat va samaradorligini baholash, o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish va o'quv jarayonlarini yangilashga imkon beradi. Samarali baholash esa pedagog kadrlarning o'quv jarayonlarini boshqarish va natijalarini baholashda o'zaro muhokama va kooperatsiyani talab qiladi.

Kasbiy portfel, pedagog kadrlarning o'z faoliyatlarini va rivojlanishini takomillashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu, o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan dars rejali, o'quv mashq-harakatlari, yozma ishlar, o'quvchilarning ishlariga berilgan qaydalar va baholash natijalari kabi ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Kasbiy portfel, o'qituvchilarning rivojlanishini o'ziga xos shaklda ko'rsatish, o'quv jarayonlarini rejaliashtirishda o'z hissasini ko'rsatish, o'quvchilarning rivojlanishini baholash va tashhislashda samarali ma'lumotlarni taqdim etishga imkon beradi. Pedagog kadrlarni zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, interaktiv darsliklardan va onlayn ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishga yo'naltiradi. Bu, o'qituvchilar uchun interaktiv multimedia darsliklarni tuzish, onlayn ta'lim platformalarida o'quvchilar bilan aloqada bo'lish, onlayn ilovalardan foydalanish, webinarlar va internet resurslaridan foydalanish, shuningdek, o'qituvchilar uchun pedagogik texnikalar va yangi ta'lim usullarini o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Xorijiy tajribalar esa pedagogik sohadagi rivojlanishlarni ko'rishda katta ahamiyatga ega. Xorijiy ta'lim institutlarida o'qish, pedagog kadrlarga turli mamlakatlarda amaliy tajriba olish imkonini beradi. Bu tajribalar, o'qituvchilarga xorijiy ta'lim muassasalarining yuksak standartlarini tushunish, xorijiy pedagogik texnikalardan foydalanish, tarbiyachilik metodlarini o'zgartirish va o'quvchilarning xalqaro hamkorlik va global qiziqishlariga javob berishni o'rganishga imkon beradi. Xorijiy ta'lim muassasalarida o'qish, amaliy ish va tadqiqotlar o'quvchilarni kasbiy kompetentliklarini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> February, 2025

Ushbu ilmiy maqola pedagog kadrlarni kasbiy kompetentliklarini baholash va tashhislashning zamonaviy yondashuvlari va xorijiy tajribalar asosida rivojlanishini oshirish uchun muhim usullarni ko'rsatadi. Bu usullar pedagog kadrlarining rivojlanishini oshirish, o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish va o'quvchilarning o'zlarini yanada yaxshi tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

### **Xulosa:**

Ushbu tezisdan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki professional ta'limga muassasalaridagi ta'limga tarbiya jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etish, boshqarishning samarali modellarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o'z navbatida yuqori intellektual saloxiyatlari, yuksak axloqiy sifat va fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, tezisda xorijiy tajribalar haqida ham ma'lumotlar beriladi. Xorijiy ta'limga institutlarida o'qish va amaliy tajriba olish pedagog kadrlarga ta'limga yuqori standartlarini tushunish, xorijiy pedagogik usullardan foydalanish va o'quvchilarning global qiziqishlariga javob berish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus, professional ta'limga tizimini tartibga soluvchi normativhuquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-sonli Qarori 2020 yil 7 avgust.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 394-sonli qarori. 2019 yil 13 may
- 3.S.T.Turg'unov, F.X.Axmedov, Q.O.Shodmanov, N.Q.Axmedova. D.M.Otajonova. Umumiyo o'rta ta'limga muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari. Qo'llanma. Namangan-2012 y.
4. N.Ismoilov, Q. Shodmanov. Professional ta'limga muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar tahlili. Science and innovation.2022 y.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**

**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> February, 2025

5. Xasanova G.X. O‘zbekiston, Yaponiya va Janubiy Koreya kasb-hunar ta’limi tizimlarining asosiy xususiyatlari //Zamonaviy ta’lim jurnali.– Toshkent, 2018. №3. – B.23-29 (13.00.00; № 10).
6. Khasanova G.Kh. Comparative analysis of vocational education systems of Uzbekistan and Japan // Zamonaviy fan, ta’lim va tarbiyaning dolzARB muammolari. – Urganch, 2019. №1. – P. 771-781 (13.00.00; №24).